


2022- yil yanvar - iyul oylarida uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-iyul oylarida Samarqand viloyatida jami **4689,9 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan **106,8 %** ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2022- yil yanvar- iyul oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha
faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar
soni**

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,6 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,4 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 124 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurilishi ishlari hajmi 281,9 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 67,6 %) ni tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurilishi bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 46,3 % ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.08.2021- yil	01.08.2022- yil	
Samarqand viloyati	3317	3441	124
Samarqand sh.	1155	1170	15
Kattaqo'rg'on sh.	118	138	20
tumanlar:			
Oqdaryo	147	159	12
Bulung'ur	77	76	-1
Jomboy	135	138	3
Ishtixon	153	141	-12
Kattaqo'rg'on	136	139	3
Qo'shrabot	74	78	4
Narpay	83	85	2
Payariq	276	297	21
Pastdarg'om	317	340	23
Paxtachi	69	75	6
Samarqand	144	156	12
Nurobod	61	66	5
Urgut	237	238	1
Toyloq	135	145	10



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.08.2022- yil holatiga



Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,0 %), Pastdarg'om (10,0 %) va Payariq (8,6 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar – iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **738,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **100,2** % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **15,8** % ni tahskil qildi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarinining jamiga nisbatan ulushi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarinining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **41,9** %), Pastdargʼom tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **20,3** %), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **11,6** %), va Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,1** %) tumanlarga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2022- yil yanvar-iyul oylarida
- 2021- yil yanvar-iyul oylarida

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-iyul oylarida qurilish ishlari nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **73,2 %** i bajarilib, 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **7,1 %** punktga ko'payish kuzatildi.


Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **117,9 %** ni tashkil etgan holda **3433,5 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **11,0%** ni tashkil etib, **517,7 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **70,2 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiylajmida norasmiy sektorning ulushi


Mlrd.so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **89,3** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **33,7 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **1,9 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4600,6** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **111,4 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **98,1 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2022- yil
Yanvar-iyul
oylarida



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2022- yil
yanvar – iyul
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-iyul oylarida

67,8 %

Bajarilgan qurilish ishlarning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarning **67,8%** yoki **3178,5** mlrd. so'mni tashkil etgan.

22,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **698,9** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **22,0** % ni tashkil etdi.

62,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1987,0** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **62,5%** ni tashkil etdi.

15,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **492,6** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **15,5%** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-iyul oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
Samarqand viloyati	4 689,9	106,8	3 178,5
Samarqand sh.	1 592,8	108,5	1 239,6
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar:	70,8	94,2	69,9
Oqdaryo	346,7	98,0	251,1
Bulung'ur	131,6	106,4	89,0
Jomboy	202,7	100,3	152,6
Ishtixon	216,3	104,9	162,1
Kattaqo'rg'on	130,1	102,3	104,9
Qo'shrabot	101,4	101,2	79,5
Narpay	122,6	95,3	104,9
Payariq	330,5	112,6	216,1
Pastdarg'om	318,2	112,5	120,8
Paxtachi	93,8	96,7	85,6
Samarqand	237,9	112,1	105,1
Nurobod	52,6	102,1	19,1
Urgut	247,6	105,7	204,7
Toyloq	494,3	113,4	173,5

*Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2022- yil yanvar-iyul oylarida

3,7




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

67,6



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

28,7



Bino va inshootlarni
qurilishi

4,4



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

27,7



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

67,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **3,2 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **20,8 %** punktga ko'mayish kuzatildi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,0 %** punktga ko'paygan, **58,3 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **12,3 %** punktga ko'payib **38,5 %** ni tashkil etdi.



2022- yil
yanvar – iyul
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **20,9 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,7 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **79,1 %** (**8,8 %** punktga ko'paydi).



2022- yil
yanvar – iyul
oylarida


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **18,5 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar - iyul oylariga nisbatan **-2,2 %** punktga kamaydi. **81,5 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **2,2 %** punktga kamayish



2022- yil
yanvar – iyul
oylarida

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-iyul oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
1592,8

1

2

Toyloq
494,3

Payariq
330,5

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
52,6

2

1

Kattaqo'rg'on sh
70,8

Paxtachi
93,8

3



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32



**2022- yil
yanvar – iyul
oylarida**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari